

## “E-UNIVERSITET” - OTM FAOLIYATINI BOSHQARISHNI AVTOMATLASHTIRISHDA YANGI QADAM

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinnbosari A.A.Abduhakimov raisligida 2019 yil 21 sentyabr kuni Toshkent davlat pedagogika universitetida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida mazkur universitetda joriy etilgan ta'lif, ilmiy va ma'muriy faoliyat jarayonlarini boshqarishni avtomatlashtirishga qaratilgan «E-univesitet» axborot tizimi va «E-minbar» dasturiy platformasi taqdimoti bo'lib o'tdi.



Taqdimot davomida Toshkent davlat pedagogika universitetida ta'lif jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarga asosiy e'tibor qaratildi.

Jumladan:

- universitetning ta'lif, ilmiy va ma'muriy faoliyati jarayonlarini boshqarishni avtomatlashtirishga qaratilgan “E-universitet” axborot tizimining 15 ta komponentdan iborat tarkibiy tuzilmasi ishlab chiqildi. Bugungi kunda “E-universitet” axborot tizimining boshlang'ich 8 ta komponenti dasturiy platforma ko'rinishida ta'lif jarayoniga joriy qilindi;
- talabalar va professor-o'qituvchilarни identifikatsiya qilish tizimi (FingerPrint texnologiyasi asosida) orqali kirish-chiqishini nazorat qilish elektron tizimi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida tatbiq etilgan axborot tizimlari (E-minbar) tajribasini o'rganish asosida joriy etildi;
- Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida tatbiq etilgan axborot tizimlaridan Ye-minbar tajribasini o'rganish hamda universitetda ayni vaqtga qadar joriy qilinayotgan axborot tizimlarini o'zaro integratsiya qilish natijasida Smart-auditoriya faoliyati yo'liga qo'yildi.



Smart-auditoriya o'zida FingerPrint, Smart-minbar, mul'timediya proektori kabi zamonaviy axborot texnologiyalarini jamlagan tizim.

FingerPrint texnologiyasi talaba va professor-o'qituvchilarning barmoq izlarini skanerlash asosida davomatni avtomatik tarzda aniqlaydi hamda markaziy serverda qayd etib boradi. Ushbu elektron qaydlar yordamida guruh va fakul'tet kesimida joriy sanada mashg'ulotlarda qatnashmayotgan talabalar, semestr davomida ko'p dars qoldirgan talabalar to'g'risidagi hisobotlar avtomatik tarzda shakllanadi.

Ushbu texnologiya o'qituvchining dars boshlanishida an'anaviy yo'qlama (davomat aniqlash) uchun sarflaydigan vaqtini tejash bilan birga fakul'tet va kafedralardagi mas'ul xodimlarning ish samaradorligini va shaffofligini oshiradi. Shuningdek, professor-o'qituvchilar va talabalarni ta'lim jarayoniga, mashg'uotlarni tashkil etishga alohida mas'uliyat bilan qarashga undaydi.



E-minbar dars materiallarini mavzu bayonidan chalg'imasdan tushuntirishda yangi texnologiya bo'lib, o'qituvchi uchun kerakli bo'lgan turli ma'lumot va uskunalar bilan jihozlangan. Ovoz kuchaytirish moslamasi o'qituvchi va namoyish qilinayotgan mul'timediya materiallari ovozini o'quvchilarga yaxshi yetib borishini ta'minlaydi.

Darsni bir vaqtida vebinar ko'rinishida olib borishga mo'ljallangan konferents-aloqa platformasi darsda qatnashmayotgan talabalarga mashg'ulotni onlayn tarzda kuzatish va o'zlashtirish imkonini beradi.

### Локал тармоқ, күн

- Университетнинг Тоҷи худудлардаги бинолар, орқали ягона тармоқка
- Тармоқнинг маълумоти. Бу олис худуддаги кӯз беради;
- Ўқув аудиториялари, таҳса ва ТТЖ да - жами 500 дарбордаги ўрнатилган.
- 50 дан ошиқ саноатни бўлиб. Уларнинг ҳамон фойдаланувчани сиз интернетта улаш имконига ишга ташланади.



Dars vaqtida ko'p zarurat tug'iladigan, masalan proektor ekranini boshqarish, yoritish chiroqlarini o'chirish ya yoqish, xonadagi pardalarni tushirish va ko'tarish kabi amallarni o'qituvchi o'z joyidan turib touchscreen yordamida amalga oshiradi.

E-minbar dasturiy platformasi professor-o'qituvchiga o'zining virtual kabinetidagi ishini tashkil qilish, joriy sana uchun dars jadvali, taqvim-mavzuli (kalendарь-тематик) reja, bugungi mavzu va darsga oid boshqa ma'lumotlar bilan tanishish, mashg'ulot davomida talabalarga mavzu doirasida yanada ko'proq ma'lumot berishda qulay vosita hisoblanadi.

Univeristetda Belarusъ davlat pedagogika universiteti bilan qo'shma ta'lim dasturi asosida tashkil etilgan "Innovatsion pedagogika" fakulъtetida ma'ruzalar o'zaro tasdiqlangan jadval asosida onlayn (vebinar) shaklda tashkil qilinmoqda. Ma'ruzalarga Belarusъ davlat pedagogika universitetining yetuk professor-o'qituvchilari jalb qilingan. Onlayn vebinar mashg'ulotlar conf.uzcloud.uz maxsus platformasida olib borilmoqda. Ushbu platforma video, ovoz hamda o'qituvchining kompyuteridagi taqdimotini bir vaqtda translyatsiya qilish, shuningdek vebinarni to'liq yozib olish imkonini beradi.



Universitetda AKT infrastrukturasini rivojlantirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirildi, jumladan, mavjud kompyuuterlar soni 1272 tani tashkil qiladi va ulardan o'quv, boshqaruv jarayonlarida samarali foydalaniladi. Universitet axborot resurs markazida 87 ta, talabalar turar joyida 46 ta kompyuuterlar talabalar ixtiyorida. Universitet axborot tizimlarini yuritish uchun jami 9 ta server xizmat ko'rsatadi.

Qo'yilgan topshiriq ijrosini ta'minlash yuzasidan shu kunga qadar 115 dona 50" va undan katta o'lchamli zamonaviy televizorlar, 9 dona interaktiv doska xarid qilinib, ulardan o'quv jarayonida mul'timedya ma'lumotlarini namoyish etish uchun foydalanib kelinmoqda.

Internet tezligi hozirgi vaqtida 160 Mb/s ni tashkil qiladi. Barcha talabalar turar joylari yagona lokal va internet tarmog'iga ulangan. Talabalar kontingentining ortishi, hamda taqdim etilayotgan onlayn materiallar qamrovining kengayganligi munosabati bilan internet tezligini 200 Mb/s gacha oshirish choralar ko'rilmoxda.

Tarix va fizika-matematika fakultetlari o'quv binolarini optik aloqa liniyasi orqali yagona lokal va internet tarmog'iga ulash, shuningdek mavjud lokal tarmoq qurish uchun "GELIOS LINE TECNOLOGY" xususiy korxonasi bilan 70 294 800 so'mlik shartnoma tuzildi. Ayni vaqtida montaj ishlari yakuniga yetkazilib, yuqoridagi o'quv binolaridagi 135 ta foydalanuvchi lokal va internet tarmog'iga ulanish imkoniyatiga ega bo'ldi.



O'quv binolari va talabalar turar joylarida yagona Wi-Fi tarmog'ini tashkil qilish uchun qo'shimcha 50 dona sanoat Wi-Fi qurilmalari harid qilindi va o'rnatildi. Ushbu qurilmalarning har biri 300 ta foydalanuvchini internet tarmog'iga ulash imkonini beradi.

O'quv auditoriyalaridagi tartib-intizom hamda professor-o'qituvchilar o'tayotgan mashg'ulotlarni bevosita kuzatish va tahlil qilish maqsadida 1-3 o'quv binolaridagi o'quv auditoriyalariga jami 270 ta ovozli kuzatuv kameralari o'rnatilgan. Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi tomonidan yuqoridagi tizimdan foydalangan holda mashg'ulotlardagi davomat, professor-o'qituvchi va talabalarning darsdag'i faolligi tizimli ravishda o'rganib, tahlil qilib borilmoqda.



Universitetda videodars.tdpu.uz – ma’ruza mashg’ulotlarini video-katalogi yaratilgan. Ushbu katalogga 46 ta videodars joylashtirilgan.

2019-20 o’quv yilining birinchi yarim yili yakuniga qadar 200 ta videodarsni tasvirga olish va tizimga joylashtirish rejalashtirilgan.

Yig’ilish yakunida yuqoridaq aytib o’tilgan axborot tizimlarini respublika oliy ta’lim muassasalarida joriy etilishi bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Manba: [edu.uz](http://edu.uz)